

SURXONDARYO VILOYATI URUG' MEVALI BOG'LARINING ASOSIY ZARARKUNANDALARI

S.X. Sulliyeva

Termiz davlat universiteti, Termiz sh., O'zbekiston

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi mevali bog'larda keng tarqalib, ularga zarar berayotgan barg o'rovchilar (*Tortricidae*) oilasiga mansub olma mevaxo'ri *Cydia pomonella* (Linnaeus, 1758); *Diaspididae* oilasiga mansub kaliforniya qalqondori *Diaspidiotus perniciosus* (Cms., 1881), binafsharang qalqondor *Parlatoria oleae* (Colvée, 1880) ning tarqalishi, zarari, bioekologik xususiyatlari haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: *Malus domestica* B., *Cydia pomonella*, *Grapholitha molesta*, *Parlatoria oleae*, *Diaspidiotus perniciosus*, biologiyasi, meva, bargi, novdasi.

Аннотация: *Cydia pomonella* (Linnaeus, 1758) — представитель семейства *Tortricidae*, широко распространенный в садах и повреждающий их; Приведены сведения о распространении, вредоносности и биоэкологических характеристиках калифорнийских щитковок *Diaspidiotus perniciosus* (Cms., 1881) и пурпурного щитка *Parlatoria oleae* (Colvée, 1880), принадлежащих к семейству *Diaspididae*.

Ключевые слова: *Malus Domestica* B., *Cydia pomonella*, *Grapholitha molesta*, *Parlatoria oleae*, *Diaspidiotus perniciosus*, биология, плод, лист, ветка

INDICATORS OF STUDENT ASSESSMENT IN MODERN EDUCATION SYSTEM

Sulliyeva Suluv Xurramovna

Termiz State University, Termiz, Uzbekistan

Annotation: This thesis includes *Cydia pomonella* (Linnaeus, 1758), an apple orchard belonging to the family *Tortricidae*, which is widespread in orchards and harms them; The distribution, damage, and bioecological characteristics of the California shield *Diaspidiotus perniciosus* (Cms., 1881) and the purple shield

Parlatoria oleae (Colvée, 1880), which belong to the family *Diaspididae*, have been reported.

Key words: *Malus domestica* B., *Cydia pomonella*, *Grapholitha molesta*, *Parlatoria oleae*, *Diaspidiotus perniciosus*, biology, fruit, leaf, twig.

Dunyo miqyosida bugungi kunda kechayotgan iqlim o'zgarishlari, aholi sonining shiddat bilan o'sishi, ishlab chiqarish jarayonining jadallashishi kuzatilayotgan bir davrda, barcha sohalar kabi oziq-ovqat yetishtirish sanoatida ham qator muammolar ko'paymoqda. Dunyoda har yili 5 million gektardan ortiq maydonda olma yetishtiriladi. 2017 yilda olma yetishtirish miqdori 76 million tonnani tashkil etgan. 2017-2018 yilda yalpi olma yetishtirish miqdori 2,6 million tonnaga kamaygan. Xususan, jami olma mahsulotining Germaniyada 46%, Italiya 23%, Fransiyada 8% hosil zararli organizmlar ta'sirida nobud bo'lmoqda [6].

Shunga ko'ra qishloq xo'jaligi o'simliklarining, jumladan aholini sifatli meva mahsulotlari bilan ta'minlash zararkunanda hasharotlar tomonidan yetkazilayotgan iqtisodiy zararni kamaytirish sohasida samarali kurash choralarini takomillashtirish muhim ilmiy amaliy ahamiyat kasb etadi. Respublikamiz mevali bog'larida 260 dan ziyod zararkunanda va 50 dan ziyod kasalliklar, dala ekinlarida 300 dan ortiq zararkunandalar va 100 dan ortiq kasalliklar uchrashi qayd qilingan [2,4].

Olma - *Malus domestica* B. iqtisodiy jihatdan muhim ekin bo'lib, butun dunyoda yetishtiriladi. Dunyo bo'yicha AQSH (4,8 mln.t.), Xitoy (22,01mln.t.), keyingi o'rinlarda Rossiya, Eron, Turkiya, Fransiya, Italiya mamlakatlari olma yetishtirish bo'yicha yetakchilik qiladi. O'zbekistonda olma uzumdan keyingi eng ko'p yetishtiriladigan meva hisoblanadi. Jahon bo'yicha olmaning yalpi hosili 60,2 mln. tonnani tashkil etsa, bu son O'zbekistonda 0,4 mln. tonnani tashkil etadi [1].

Surxondaryo viloyati urug' mevali bog'larining asosiy zararkunandalarini ro'yxatini tayyorlash maqsadida Surxondaryo viloyati Termiz tumani "Navro'z" MFYda joylashgan "SAYROB – AGRO - LIFE" f/x. ning behi, olma bog'larida, Angor tumani "Arslonbek Qurbonov", "Gilambob Bog'i-Angor" f/x. ning olma

bog'larida, Uzun tumani "Jonchekka sarhadlari" f/x. ning olma bog'larida, Qumqo'rg'on tumani "Chaman-Sarvar ko'chatlari" f/x. ning olma bog'larida 2020-2022 yillarda dala tadqiqot ishlari olib borildi. Surxondaryo viloyati sharoitida urug' mevali daraxtlardan olma daraxtidagi xavfli zararkunanda turlari qayd etilib, biologiyasi hamda zarar keltirish xususiyatlari to'liq tahlil etildi. Yo'nalishli kuzatuvlarimiz davomida mevali bog'larimizda sezilarli iqtisodiy zarar yetkazayotgan xavfli kemiruvchi zararkunandalar – barg o'rovchilar *Tortricidae*) oilasiga mansub olma qurt (mevaxo'ri) *Cydia pomonella* (Linnaeus, 1758), Respublikamiz uchun ichki karantin obyekti hisoblangan sharq mevaxo'ri - *Grapholitha (Laspeyresia) molesta* (Busck, 1916) uchrashi aniqlandi. Surxondaryo viloyati hududida mevali bog'larda 2 ta sinf, 3 ta turkum va 8 ta oilaga mansub 15 turdagi so'ruvchi zararkunandalar uchrashi aniqlandi. Tadqiqotlar natijasida urug' mevali bog'larga so'ruvchi zararkunandalardan 8 turi - olma shirasi *Aphis pomi* (De Geer, 1773), qizil qon shirasi *Eriosoma lanigerum* (Haus., 1802), kaliforniya qalqondori *Diaspidiotus perniciosus* (Cms., 1881), binafsharang qalqondor *Parlatoria oleae* (Colvée, 1880), olma qandalasi *Stephanitis oschanini* (Vasiliev, 1935), nok qandalasi *Stephanitis pyri* (Fabricius, 1775), qizil do'lana kanasi *Amphytetranychus viennensis* Zacher, oddiy o'rgimchakkana *Tetranychus urticae* (Koch, 1836) sezilarli zarar keltirishi ma'lum bo'ldi. Mevali bog'larga zarar keltiruvchi zararkunanda hasharotlardan asosiy dominant turlar qatoriga kiruvchi olma mevaxo'ri - *Cydia (Carpocapsa) pomonella* L. 30 turdan ortiq mevali daraxtlarni zararlaydi, ayniqsa, olma, qisman nok va behining asosiy zararkunandasidir. Olma qurti (mevaxo'ri) olma va nok hosilining taxminan 50% ga zarar yetkazadi. Har yili uning zararlashidan tuguncha va g'o'r mevalarning anchagina qismi to'kilib ketadi. Olma qurti tushgan mevalar ko'pincha irib ketadi va ularni saqlab bo'lmaydi. Bu qurt ba'zan o'rik va olxo'rini ham zararlaydi. Olma qurti mevaning eti va urug'i bilan oziqlanadi. Bu qurt olmaning erta pishar navlarini 30-40 % ini, o'rta va kuzgi navlarini 40-50 % ini, qimmatbaho kechpishar navlar mevasini 80-90 % ini zararlaydi [3,4,5]. Kaliforniya qalqondori

olma, nok, shaftoli, olcha, gilos, olxo‘ri kabi daraxtlarning umumiy qilib olganda 270 turdagi o‘simliklarning ashaddiy zararkunandasi. Koksidlar mevalarga dog‘ tushirib, sifatini pasaytiradi. Binafsharang qalqondor tushgan ba‘zi olma navlarining 50% da 20 ta va undan undan ortiq dog‘ topildi. Mevalarning 90% da dog‘ borligi aniqlandi. Binafsha rang qalqondor - *Parlatoria oleae Colvee*. va kaliforniya qalqondori – *Diaspidiotus perniciosus Coms*. olma bog‘larida zararlilik darajasi bo‘yicha yuqori o‘rinni egallaydi, ya‘ni 34,5% binafsharang qalqondor, 30,2% kaliforniya qalqondori, 11,4% olma vergulsimon qalqondor, qolgan turlar esa 6,9% ni tashkil etdi. Kaliforniya qalqondori urug‘ mevali daraxtlardan olmani 12,8%, nokni 10,1%, behini 10,9%, qolgan turlar esa eng kam darajada 8,6% zararlangani o‘rganildi.

Xulosa qilib aytganda, bu boradagi kamchiliklarni bartaraf etish uchun avvalambor qishloq xo‘jalik ekinlariga talofat yetkazayotgan zararli organizmlarni tur tarkibi, bioekologiyasi va zarar yetkazish darajalarini hamda tabiiy boshqarish qonuniyatlarini ochish va shular asosida ularga qarshi kurashda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Botirov A. E., Arakawa O. Apples and its water requirements: some water retention substances. “Ўзбекистоннинг умидли ёшлари” мавзусидаги 6-сон Республика илмий онлайн конференциясининг материаллари тўплами. – Тошкент: «Тадқиқот», 2021. – 44-49 б.

2. Эргашев И.К., Муродов Б.Э. ва бошқ. «Боғ, токзор ва дала экинларининг зараркунанда, касалликлари, бегона ўтлар ҳамда уларга қарши кураш усуллари» . – Тошкент: “Наврўз” нашриёти. 2018. 136 бет.

3. Хўжаев Ш.Т. “Энтомология, қишлоқ хўжалик экинларини ҳимоя қилиш ва агротоксикология асослари”, Фан-2010 й. 244-249 б.

4. Tojiyeva F. Et Al. So‘ruvchi Zararkunandalardan-Aphididae oilasi vakillarining turlari, bioekologik xususiyatlari //Scientific Approach To The Modern Education System. – 2022. – Т. 1. – №. 10. – С. 51-54

5. Tojiyeva F., G'aniyeva G. Binafsharang qalqondori - *Parlatoria oleae* (Colvée, 1880) ning biologik xususiyatlari va zararlilik darajasi //Research Focus International Scientific Journal, 2023, №2/6, 12-14.

6. <http://www.agbz>.